



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-noyabr

242-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PF-184 sonli Farmoni hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 28-oktabr kunidagi 518-11-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PF-184-sonli Farmoni hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 28-oktabr kunidagi 518-11-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash, seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasini raqamlashtirish, madaniy meros obyektlari va transport inshootlarining seysmik holatini monitoring qilish, qurilish maydonlaridagi gruntlarning seysmik xavfini kamaytirish, sohada kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar ko‘lami va sifatini yanada oshirish maqsadida, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,21¹-moddalariga asosan,

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Seysmik xavfsizlikni ta’minlash hamda seysmologiya sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-184 sonli Farmoni hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 28-oktabr kunidagi 518-11-0-Q/25-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Farmonga ko‘ra quyidagi maqsadlar seysmik xavfsizlikni ta’minlash hamda seysmologiya sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

madaniy meros obyektlari va transport inshootlarining (avtomobil va temiryo‘l ko‘priklari, yerosti va yerusti tunnellari) zilzilabardoshligini monitoring qilish tizimini yaratish;

seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasini raqamlashtirish va unga sun‘iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish;

qurilish maydonlari uchun zamin gruntlarini o‘rganish va ularning mustahkamligini oshirish choralari ko‘rish;

seysmik xavfsizlik va zilzilabardoshlik sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish amaliyotini takomillashtirish;

madaniy meros obyektlari va transport inshootlarining zilzilabardoshligini monitoring qilish:

2026-yil 1-yanvardan boshlab tarixiy va madaniy meros obyektlarining zilzilabardoshligini monitoring qilish amaliyoti bosqichma-bosqich belgilangan tartiblar asosida yo'lga qo'yilsin.

2026-yil 1-martdan boshlab avtomobil va temiryo'l ko'priklari hamda yerosti va erusti tunnellarining (keyingi o'rinlarda — transport inshootlari) zilzilabardoshligini onlayn monitoring qilish amaliyoti bosqichma-bosqich onlayn monitoring "Transport Seysmika" platformasi orqali seysmik faol hududlar kesimida shakllantirilib, yo'lga qo'yilishi hamda seysmik datchiklarni sotib olish, transport inshootlariga o'rnatish va uni yuritish bilan bog'liq xarajatlar 2026-2028-yillar davomida Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

Seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini raqamlashtirish va unga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etishiga muvofiq shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq 2025-yil 1-dekabrda boshlab:

yagona tizim asosida Onlayn seysmologik platformasi ishga tushirilishi, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarning mintaqaviy akselerogrammalar bazasi, ilmiy tahlil asosida seysmik xavf darajasi bo'yicha tasniflashni nazarda tutuvchi umumiy seysmik va batafsil rayonlashtirish xaritalari, tuman va shaharlar markazlarining makroseysmik ballardagi va cho'qqi tezlanishdagi mikrohududlashtirish xaritalari, mavjud faol tektonik yoriqlar xaritasi, Onlayn seysmologik platforma "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga integratsiya qilinib, undagi seysmologik ko'rsatkichlar bo'yicha seysmik faol zonalarda yangi qurilishi rejalashtirilayotgan bino va inshootlar loyihalashtiriladi hamda mazkur ko'rsatkichlar shaharsozlik ekspertizasidan o'tkazish uchun asos hisoblanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari M.Qodirxonov:

2025-2027-yillarda seysmik xavfsizlikni ta'minlash hamda bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda – "Yo'l xaritasi") ijro uchun qabul qilinsin;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarning sifatli va o'z vaqtida amalga oshirishini tashkillashtirilishini hamda nazoratini olib borsin.

4. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (D.Otamirzayev), tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Ergashev), aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlash va seysmologiya sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mohiyatini aholi va keng jamoatchilikka tushunarli tarzda yetkazish ishlarini tashkil etish maqsadida har chorakda:

fuqarolarning zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan so'ng to'g'ri harakatlanishiga bag'ishlangan lavhalar, videoroliklar va eshittirishlar tayyorlanishini;

Milliy teleradiokompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan media mahsulotlarni hamda Farmonda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonlari barcha ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini tashkil etsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabr kungi PF-184 sonli Farmoni bilan belgilangan monitoring rejasi ijrosini ta’minlash choralari ko‘rilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Qodirxonov hamda tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i D.Otamirzayev zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T